O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT
DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

# GLOBAL TA’LIM VA MILLIY METODIKA TARAQQIYOTI

mavzusidagi an’anaviy VII respublika
ilmiy-amaliy anjuman materiallari



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI

# GLOBAL TA’LIM VA MILLIY METODIKA TARAQQIYOTI

***mavzusidagi an’anaviy VII respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari***

**Toshkent – 2023**

**Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti.** Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2023. –500 b.

Ushbu to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi tomonidan tayyorlangan.

**Mas’ul muharrir:**
**G. Jo‘rayeva –** filologiya fanlari doktori, professor v.b.

**Taqrizchilar:**
**R. Niyozmetova** – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori.

**A. Sobirov** – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori.

**To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:**

| | |
|---|---|
| **K. Mavlonova** | Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori. |
| **M. Tuychiyeva** | Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi dotsent v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori. |
| **D. To‘xliyeva** | Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori. |
| **S. Kuldasheva** | Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi |
| **H. Maqsudov** | Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi. |
| **J. Nurmuhammadov** | Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi. |

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi fakulteti Kengashining 2023-yil 8-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy va uslubiy jihatlariga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

ham xizmat qiladi. Barcha davrlar bolalar adabiyoti ning taraqqiyot tamoyillari, avvalo, ma’rifiylik va tarbiyaviylikda aks etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Is’hakov Y. So‘z lug‘ati. Toshkent: O‘zbekiston, 2011. 320 b.
2. Karimov H. Mustaqillik davri adabiyoti. Toshkent, 2007. 407 b.
3. Sayyid S. Ishlar. 11-jild she’rlar. Doston. Toshkent: Sharq, 2018.
4. Sharafiddinov O. She’riyatning og‘ir yuki / Sirojiddin Sayyid. Ishlar. 1-jild she’rlar. She’rlar. Toshkent: Sharq, 2018. – B. 470.
5. “Boburnoma”da Vahob Rahmon / Sirojiddin Sayyid. Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur. Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – B. 53.
6. Karimov H. Mustaqillik adabiyoti. Toshkent, 2007. – B. 407.
7. Sirojiddin Sayyid. Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur. Toshkent: O‘zbekiston, 2011. –B. 160.


# MATN ORQALI O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH


**Maxfuza Tuychiyeva**

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU dotsent v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori*



***Annotatsiya***

*Maqolada o‘quvchilarni o‘quv materialiga qiziqtirish, badiiy asar mazmunini tushunib yetish, mustaqil xulosa chiqarish, mutolaaga rag‘batni oshirish hamda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan.*



***Kalit so‘zlar:*** *adabiyot, o‘quv materiali, tanlash, mutolaa, savol, topshiriq.*


Barkamol avlodda ma’naviy sifatlarni shakllantirishda adabiyotning o‘rni juda muhim sanaladi. O‘quv fani sifatida adabiyotning asosiy ashyosi darslik bo‘lib, matn esa uning asosiy tarkibiy qismidir. Badiiy matn bilan ishlash badiiy so‘z qudratini his qilish, estetik didni o‘stirishga olib keladi. Asosiy vazifani bajarish badiiy matnni tahlil qilish, matn orqali nutq o‘stirish orqali erishiladi. Tahlil bolada mustaqil fikrlashni tarbiyalasa, aynan nutq o‘stirish

orqali lingvistik maqsad amalga oshiriladi. Matn bilan ishlash orqali nutq o‘stirishning quydagi turlarini farq qilish mumkin:
1. Matnga oid savol va topshiriqlar ustida ishlash asosida nutq o‘stirish.
2. Matnni ifodali o‘qish asosida nutq o‘stirish.
3. Test topshiriqlaridan foydalanish asosida nutq o‘stirish.
4. Matnga tayanib mustaqil ishlar asosida nutq o‘stirish.
5. Matn mazmunini qayta hikoyalash asosida nutq o‘stirish.

Matnga oid savol va topshiriqlar ustida ishlash asosida nutq o‘stirish eng samarali va salmoqli ijobiy natijalarga olib keladigan, o‘quvchining yosh xususiyatlariga muvofiq, qiziqishi va faolligini ta’minlaydigan faoliyat sifatida ko‘riladi. Matnni ifodali o‘qish esa adabiyot o‘quv predmetida asosiy nazorat shakllaridan biridir. Test topshiriqlari orqali nutq o‘stirishda “inkor qilish”dan foydalanish mumkin bo‘ladi. Unda o‘quvchi har bir test variantining noto‘g‘ri javobini nima uchun to‘g‘ri javob bo‘la olmasligin izohlab berishi lozim bo‘ladi. Matnga tayanib mustaqil ishlar asosida nutq o‘stirish kichik guruhlarda “Birgalikda o‘qish” texnikasidan foydalangan holda tashkil etish mumkin bo‘ladi:
1. 5-6 o‘quvchidan iborat guruhlar tuziladi
2. Guruh ichidan ekspert tayyorlanadi va u o‘quvchilarning ishini nazorat qilib turadi.
3. Har bir guruhga umumiy mavzuning bir qismi bittadan topshiriq qilib beriladi.
4. Har bir guruh ichida umumiy topshiriq taqsimlanadi.
5. Hamma yakka tartibdagi topshiriqni bajaradi.

Matn asosida mustaqil ishlash uchun insert, FSMU, tushunchalar izohi kabi texnologiyalardan ham foydalanish mumkin bo‘ladi.

Professor S.Matjonov bilimlarning to‘la o‘zlashtirilishi uchun o‘quvchilar matn mazmunini mustaqil ravishda o‘z so‘zlari bilan qayta hikoya qilishlarini talab qiladi, ya’ni iloji boricha o‘quvchining o‘z so‘zlari bilan qayta hikoyalashga e’tibor qaratilmog‘i lozim deb hisoblaydi. Matn mazmunini qayta hikoyalash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh psixologiyasiga monand ish. Ularning yoshida o‘qigan yoki eshitganlarining mazmunini eslab qolish imkoniyati kuchli bo‘ladi. O‘qish darslarida mazkur yoshdagi bolalarga xos bo‘lgan bunday tabiiy psixologik xususiyatni yanada rivojlantirish

maqsadida o‘rganilgan badiiy matnlarni qayta hikoyalashga urg‘u beriladi. O‘zbek adabiyoti kursining ilk bosqichini, asosan, xalk og‘zaki ijodi namunalari tashkil etadi, albatta. 5-sinflarda xalq ogzaki ijodi namunalaridan ertaklar, rivoyatlar, afsonalar, dostonlar, matal-maqol, topishmoqlar, tez aytishlar o‘rganish uchun ko‘proq havola etilgani o‘rinlidir. Chunki xalq yaratgan ertak va afsonalarning tili sodda, ravon va bu yoshdagi o‘quvchi ruhiyati va qiziqishlariga mos bo‘ladi. Kichik o‘smir yoshidagi o‘quvchining psixologiyasi sarguzashtlarga boy asarlarni o‘rganishga moyil bo‘ladi. Xalq maqollari va matallari ham bolalarning axloqiy jihatlarini to‘g‘ri shakllantnrishga hissasini qo‘shadi, ham o‘quvchilarning nutqini o‘stirishga xizmat qiladi.

Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari o‘rganish misolida buni ko‘rib chiqamiz. Mashg‘ulotda quyidagilar amalga oshirildi: asar haqidagi nazariy ma’lumotlar kamaytirilib, matndan faqat masallar, naqllargina emas, asar qahramonlarining qiyofasini ochadigan lavhalar berilib, ulardagi maqollarga alohida e’tibor berildi. O‘quvchilarda “Zarbulmasal” haqida yaxlit tasavvur matn orqali hosil qilinishiga harakat qilinib, Yapaloqqushning Ko‘rqushni sovchilikka yuborishi, Ko‘rqushning yo‘lga tushishi, Hudxud bilan uchrashib, bir-biriga “Maymun bilan najjor”, “Tuya bilan bo‘taloq” masallarini aytib bergan o‘rinlari o‘qish uchun tavsiya qilindi. Masallardan kelib chiqadigan xulosalar, “qissadan hissa chiqarish”, obrazlar tabiatiga xos jihatlar savol va topshiriqlar orqali ochib berilgandan so‘ng, o‘quvchilarga Yapaloqqush, Hudxud tilidan chiqqan maqollarni o‘zgartirib, ma’nodoshlarini topish topshirig‘i berildi. Yapaloqqush tilidan chiqqan “Karnay misdin, balg‘am isdin” maqolining bugungi kundagi sinonimlarini topishda o‘quvchilar orasida ikkilanishlar sezilgan bo‘lsa, Ko‘rqush tilidan aytilgan “Yolg‘on masal turmas”, “Chumchuq semirsa, botmon bo‘lurmi?” “Uyat o‘limdan qattiq”, “Ko‘r tutganini qo‘ymas, kar eshitganini qo‘ymas” , “Bo‘l! Og‘iz bo‘lma, oyoq bo‘l”, “Oyoq yugurigi oshga, og‘iz yugurigi boshga” kabi maqollarini sharhlash bahs-munozaraga aylanib ketdi.

Yolg‘on so‘z qoralangan maqol o‘rniga ma’nodoshini qo‘llashda o‘quvchilar maqoldagi so‘zlar eskirganligiga e’tibor qaratdilar. Gulxaniy yashagan davr ruhiyatini saqlash, asar

ko‘rinishiga ta’sir etmaslik uchun ma’nosi bilan birga, matn shakli ham uyg‘un bo‘lishi kerakligini ta’kidlagan o‘quvchilar “Yirtiq uyni el topar, yolg‘on so‘zni chin topar”, “Yolg‘on so‘z yoqadan chiqadi”, “Yolg‘onchi to‘rga bir o‘tar, ikki o‘tmas”, “Yolg‘onchining uyi kuysa ham, hech kim ishonmaydi”, “Yolg‘onchi chin deya olmas, chin desa ham el ishonmas”, “Chinni yolg‘onga chulg‘ama, durni loyga bulg‘ama”, “Rost bilan yolg‘onning orasi – to‘rt enlik” kabi maqolalari orasidan “Rost bilan yolg‘onning orasi – to‘rt enlik” maqolini matn uchun mos deb bilishdi. Ham “enlik” so‘zining hozirgi kunda keng muomalada emasligi, ham maqolda yolg‘on gapirishdan qaytarish ma’nosi borligi uchun eng mos deb hisoblashdi. “Uyat o‘limdan qattiq” maqoli o‘rniga “Eman daraxtning egilgani – singani er yigitning uyalgani – o‘lgani”, “Yigitni or o‘ldirar, tuyani – sarvar” maqollari yigit so‘zi tufayli to‘g‘ri kelmaydi, garchi asarda odamlar hayoti bayon qilingan bo‘lasa-da, qushlar tilidan hikoya qilinyapti, ular esa o‘zlarini odamlarning obrazi ekanligini “bilishmaydi” degan qiziqarli javoblar berildi. “Yuz qizili ketar, yuz xijili ketmas”, “Yuz yuzga tushar, uyat – ichga” maqollarini qo‘llash mumkin deb topishdi.

“Og‘zingni ochguncha, ko‘zingni och”, “Og‘iz – bir, quloq – ikki, bir so‘zlab, tingla tingla qirq ikki”, “Og‘zi bilan o‘roq o‘rgan” “So‘z bilmagan – el boshiga yov keltirar ”, “Bir so‘zla, qirq tingla” kabi maqollarni ma’nodoshlari sifatida keltirib, “So‘z bilmagan – el boshiga yov keltirar” maqoli “Oyoq yugurigi oshga, og‘iz yugurigi boshga” maqolining eng maqbul ma’nodoshi deb topishdi.

“Ko‘r tutganini qo‘ymas, kar eshitganini qo‘ymas” maqoli o‘rniga “Ko‘rning qo‘liga tushma, karning oyog‘iga” maqoli eng mos ekanligini, “Ko‘rga ko‘rsatma, karga gapirma” maqoli deyarli bir ekanligini, uni qo‘yishsa, o‘zlari uchun ijodiy, yangilik bo‘lmasligini bildirishgani tajriba sinflarida topshiriq o‘quvchilar uchun ijodkorlikni uyg‘otganligidan darak beradi.

Demak, metodikaga oid darsliklarda berilganidek [Husanboyeva Q., Niyozmetova R., 2022: 209], adabiyot darslarida o‘quvchilarning mustaqil ishlashlarini samarali tashkil etish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- o‘rta va yuqori sinf o‘quvchilarining turli xil mustaqil faoliyat turlarining uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash;

- o‘quvchilarning mustaqil faoliyatining adabiy ta’lim jarayonini tashkil etishning boshqa shakllari (dars, sinfdan tashqari tadbirlar) bilan bog‘liq holda tashkil etish;
- adabiyot darslarida badiiy asarni o‘rganishning barcha bosqichlarida o‘quvchilarni mustaqil faoliyatga yo‘naltirish. Bunga quyidagilarni hisobga olgan holda individual yondashuv talab etiladi:

a) o‘quvchining shaxsiy sifatlari;
b) o‘quvchilar adabiy rivojlanishining turli darajalari;
v) o‘quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlari;
g) turli madaniyatlarni tashuvchilarni birlashtirgan polietnik sinflarning mavjudligi va hk.

Matn orqali o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish adabiy ta’limdan kutilayotgan natijaning samarali bo‘lishini kafolatlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Matchanov S. Umumta’lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish. Ped. fan. dokt.... diss. – T., 1998. – 306 b.
2. Ahmedov C., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik. I qism –T.: Ma’naviyat, 2017. – 240 b.
3. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: O‘zbekiston, 2002. – B. 503.

## AVAZ O‘TAR G‘AZALINING YANGICHA O‘QUV TAHLILI

**Dilfuza Tuxliyeva**
*ToshDO‘TAU katta o‘qituvchisi,*
*pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

***Annotatsiya***

*Mazkur maqolada Avaz O‘tarning ta’lim bosqichlarida o‘rganish belgilab qo‘yilgan “Har tilni biluv...” deb boshlanuvchi g‘azalining yangicha o‘quv tahlili va uni amalga oshirishning ilmiy-nazariy jihatlari xususida so‘z boradi. Muallif o‘quv tahlilini amalga oshirishda mutlaqo yangi yo‘ldan boradi, bunda, asosan, ontologik tahlil metodiga tayanadi.*

## MUNDARIJA


| | |
|---|---|
| **Sirojiddinov Sh.** So'zboshi | **3** |
| **GLOBAL TA'LIM VA MILLIY METODIKA** | |
| **To'xliyev B.** Alisher Navoiy ijodini o'rganishning dolzarb masalalari | **5** |
| **Niyozmetova R.** Milliylikning badiiy asalarni o'rganishdagi o'rni | **11** |
| **Mirqosimova M.** O'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish | **15** |
| **Yusupova Sh.** Ona tili o'qitishda tasavvurning o'rni | **20** |
| **Abdullayeva M.** Adabiy ta'limda ilmiy yondashuv usullari | **29** |
| **Mirzayeva Z.** Badiiy asar tahlili: lokaldan globalga | **35** |
| **Yuldasheva D., Yusupova T.** O'rta maxsus bo'g'inda ona tili ta'limi | **45** |
| **Kambarova S.** Matnni tushunish texnikasini o'rgatish – o'qish takstikasini shakllantirish vositasi | **52** |
| **Kadirova N.** Konstruktivistik ta'lim xususiyatlari | **57** |
| **ADABIYOT O'QITISH MUAMMOLARI: YECHIM VA TAKLIFLAR** | |
| **Matchonov S.** Dilshod Rajab she'riyatida ruhiyat talqini | **65** |
| **Jurayeva G., Gurel Z.** Bolalar adabiyotini o'qitishda hajviy she'riyatning ahamiyati (Muazzam Ibrohimova ijodi misolida) | **71** |
| **Abdurahmonova B.** Yusuf Xos Hojibning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari | **78** |
| **Ismoilov I.** Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonini o'qitish masalalari | **82** |
| **To'xtayeva N.** Mustaqillik davri o'zbek bolalar she'riyati | **87** |
| **Tuychiyeva M.** Matn orqali o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish | **91** |
| **Tuxliyeva D.** Avaz O'tar g'azalining yangicha o'quv tahlili | **95** |
| **Ishonxanova I.** Alisher Navoiy hikmatlarining ta'limdagi o'rni | **102** |
| **Aliqulova H.** O'zbek va qozoq yor-yor qo'shiqlarining janr tabiati | **107** |

| | |
|---|---|
| **Nabijanov Y.** Grafik organayzer – infografikalar va ulardan foydalanish | **112** |
| **Jazilova M.** Matn ustida ishlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari | **117** |
| **Nazarova D.** Xoja hikoyatlarida adolatparvarlik g‘oyalari talqini | **127** |
| **Inomjonova S.** O‘zbek bolalar adabiyotida fantastik asarlar o‘rganilishining ahamiyati | **134** |
| **Nurmuhammadov J.** Adabiy laboratoriya: podkast yaratish mashg‘ulot turi sifatida | **144** |
| **Norqulova M.** Xalq og‘zaki ijodini o‘qitishdagi muammolar tahlili (5-sinf darsligi misolida) | **150** |
| **Elboyeva M.** Uzluksiz adabiy ta’lim dastur va darsliklarida bolalar adabiyotini o‘rganish masalasi | **155** |
| **Yuldasheva M.** Adabiyot darslarini tashkil etishda ijodiy individuallik | **160** |
| **Shukurboyeva O.** Kompetentli shaxsni shakllantirishda adabiyot darslarining o‘rni | **164** |
| **Karimova Y.** Poetik tafakkur masalasining o‘rganilishi | **169** |
| **Ulug‘murodova K.** Temuriylar davri she’riyatida Layli timsoli (Atoyi va Sakkokiy ijodi misolida) | **175** |
| **Jumaniyozova I.** Ijod maktablarida mumtoz namunalarning o‘qitilishi | **182** |
| **Musaeva O.** O‘zbek tili va adabiyot darslarida o‘quvchilarni ijodkorlikka chorlash | **187** |
| **Qayimova Sh.** Adib estetikasining shakllanishida ijtimoiy omillarning o‘rni | **195** |
| **Abdullayeva M.** Bolalar adabiyotini o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy asoslari | **201** |
| **Abdurashidova Sh.** Ta’sir va tipologiya | **206** |
| **To‘g‘onova D.** Adabiyotni o‘rgatish yo‘llarini o‘rganish (dramatik asarlar misolida) | **212** |
| **Narziyeva M.** Dramatik asarlarni sahnalashtirib o‘qitish usullari | **216** |
| **Anvarova Z.** Mustaqil ishlar vositasida o‘quvchilarni adabiy-estetik tahlilga o‘rgatish | **221** |

| | |
|---|---|
| **Ergasheva N.** O‘quvchilarning kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishda grafik organayzerlardan foydalanish usullari | **227** |
| **Maxsumov M.** Yusuf Saryomiy devoni manbalari tadqiqi | **236** |
| **Vohidova M.** Muhammad Namangoniy – Foyiq she’riyati tahlili | **244** |
| **Meyliyeva N.** Alisher Navoiyning “Ahbob, yigitlikni g‘animat tutungiz” ruboiysi vazni metodikasi | **252** |
| **Rayimqulova D.** Jamshid obrazining “Avesto” va mumtoz adabiyotdagi talqini | **255** |
| **Qoryog‘diyeva S.** Adabiy lug‘atlar haqida | **260** |
| **Qulsaxatov F.** Uzluksiz ta’lim tizimida integrativ yondashuv (Bobur ijodi talqinida) | **267** |
| **Djalilova M.** Odil Yoqubov dramaturgiyasida amir temur obrazi tasviri | **277** |
| **Kuchkarova K.** Oybekning qahramon xarakterini tasvirlash mahorati | **281** |
| **ONA TILI TA’LIMIDA O‘QITISH VA BAHOLASH MUAMMOLARI** | |
| **Ahmedov H.** O‘zbek tilidan rivojlantiruvchi topshiriqlar bo‘yicha mulohazalar | **285** |
| **Mavlonova K.** Matn tuzishni o‘rgatishda darsliklardagi o‘quv materiallaridan foydalanish mazmuni | **290** |
| **Xudoybergenova Z. Kuldasheva S.** Nutqiy va lingvistik ko‘nikmalarni rivojlantirishda multimediali ta’limning o‘rni | **296** |
| **Berdiyeva N.** Og‘zaki nutqni rivojlantirish usullari | **300** |
| **To‘rayeva Sh.** Imlo savodxonligini rivojlantirishda didaktik o‘yinlardan foydalanish | **304** |
| **Mahkamova D.** “Til texnologiyasi” terminining metodik talqini | **308** |
| **Ergasheva N.** Ona tili ta’limida zamonaviy metodlarning qo‘llanishi | **313** |
| **Sharopova F.** O‘qib tushunish ko‘nikmasini aniqlash usullari | **317** |
| **Turg‘unova N.** O‘quv loyihalari bilan ishlashning pedagogik asoslari | **323** |
| **Mirzaraxmedova F.** Yozish ko‘nikmalarini shakllantirishda og‘zaki nutqning ahamiyati | **326** |

| | |
|---|---|
| **Mirvaliyeva D.** Fikrni tushunish va yozma bayon qilish darajasini aniqlash usullari. | **332** |
| **Qo‘yliyeva Sh.** Ona tili ta’limida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish muammolari | **338** |
| **Badriddinova U.** Maktab darsliklarini takomillashtirish – zamon talabi | **345** |
| **Abdurahimova G.** O‘zbek bolalar antroponimlarining konnotativ xususiyatlari | **351** |
| **Muratova F.** Test – bilim, ko‘nikma va malakalarni baholovchi topshiriq | **356** |
| **Bobonazarova S.** Boshlang‘ich sinfda badiiy matnlar ustida ishlash. | **366** |
| **Saidaxmatova M.** Bolalar nutqida makon deyksisini ifodalovchi leksik birliklar | **370** |
| **Usmonova Y.** Hamkorlikda o‘qitishning pedagogik va psixologik asoslari | **375** |
| **Eshboyev Q.** Umumiy o‘rta ta’lim uchun so‘zlar darajalanish o‘quv lug‘atining zarurati | **378** |
| **G‘aybulloyeva F.** O‘quvchilarning og‘zaki nutqini baholash zarurati | **382** |
| **TALABALAR MINBARI: TIL VA ADABIYOT TA’LIMIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR** | |
| **Xidirova H.** Ta’lim jarayonida fanlararo integratsiyaning o‘rni va ahamiyati | **388** |
| **Xolmurotova G.** Eshqobil Shukur she’riyatida badiiy san’atlar ifodasi | **393** |
| **Jo‘raqulov S.** “Yulduzlar mangu yonadi” va “Azroil o‘tgan yo‘llarda” asarlaridagi mushtarak va ayricha jihatlar | **401** |
| **Saydazimov A., Muhammadiyeva B.** Bolalar adabiyotida milliy mentalitet | **405** |
| **Mitanova Sh.** “Oydinda yurgan odamlar” va “Bepoyon osmon” asarlarining qiyosiy tahlili | **410** |
| **Rajapova X.** Adabiyotda uchraydigan chumoli obrazi talqini | **415** |
| **Xushvaqova O‘.** Epik asarlarni tahlil qilish usullari (Qissa va hikoya misolida) | **419** |

| | |
|---|---|
| **Boymurodova S.** Alisher Navoiy ijodi Aziz Qayumov talqinida | **423** |
| **Abdirashidova D.** Umumta’lim maktablarida ayol ijodkorlarning asarlarini o‘qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish imkoniyatlari | **427** |
| **Erkinova X.** Ona tili darslarida “shaxsiy hikoya” yaratish usuli | **432** |
| **Xamidova M.** Ravish so‘z turkumining maktab darsliklarida ifodalanishi | **436** |
| **To‘xtayeva F.** Ona tili o‘qitishda texnik vositalardan foydalanishning didaktik va nazariy asoslari | **439** |
| **Eshnazarov A.** O‘zbek tilining qonuniy mustahkamlanishi, o‘zbek tilining bugungi kundagi muammo va kamchiliklari | **444** |
| **Toshpulatova M.** Rus tilining O‘zbekiston va boshqa davlatlardagi mavqeyi | **449** |
| **Abdug‘afforova M.** Ilmiy insholarning o‘ziga xos xususiyatlari | **452** |
| **Abduvaliyeva A.** Iqtisodiyotga oid terminlar o‘quv izohli lug‘ati | **456** |
| **O‘rinova D.** Alisher Navoiy lirik merosining maktab darsliklarid berilishi | **461** |
| **Nurmamatova P.** Rauf Parfi she’riyatida vatan ohanglari | **468** |
| **Gulyamova O.** Intensivlik va kvantifikatsiya kategoriyalari | **471** |
| **Saidaxmatova M.** Bolalar nutqida makon deyksisini ifodalovchi leksik birliklar | **477** |
| **Mamajonova N.** Mustaqillik davri adabiyotining ta’lim jarayonida o‘ziga xos xususiyatlari | **482** |
| **Rashidova A.** Didaktik asarlarning o‘ziga xos jihatlari va mazmun uyg‘unligi | **486** |
| **Masharipov M.M.** Mahmud xo‘ja Behbudiy publitsistikasida semantik okkazionalizmlar | **491** |

# GLOBAL TA’LIM VA MILLIY METODIKA TARAQQIYOTI

***mavzusidagi an’anaviy VII respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari***

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy va uslubiy jihatlariga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Adadi 100 nusxa. Hajmi 31,2 b/t. Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$
«Times New Roman» garniturasi. ofset usulida bosildi.
OOO “BOOKMANY PRINT” bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22 mavze, 17-b.

E-mail: bookmany_print@mail.ru
t.me/ Bookmanyprint +998 99 180 97 10